RAQAMLI DIPLOMATIYANING O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON RESPUBLIKALARINING XALQARO MAYDONDAGI MAVQEINI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI

Allamurodov Bekmurod
Toshkent xalqaro ta’lim universitet o‘qituvchisi

Annotatsiya.
Ushbu ilmiy tahlil zamonaviy xalqaro munosabatlarda raqamli diplomatiyaning davlat mavqeini mustahkamlashdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining global siyosatdagi transformatsion ta’sirini, xususan, “yumshoq kuch” va milliy brending konsepsiyalari bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Ishlanmada O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalarining xalqaro maydonda o‘z imijini yuksaltirish borasida olib borayotgan siyosati qiyosiy jihatdan ochib berilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, har ikki davlat ham strategik dasturiy hujjatlar, viza liberallashuvi, institutsional islohotlar va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati orqali raqamli diplomatiya vositalaridan muvaffaqiyatli foydalanmoqda.

Kalit so‘zlar: *Raqamli diplomatiya, yumshoq kuch, milliy brend, xalqaro mavqe, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati, Qozog‘iston Respublikasi tashqi siyosati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar.*

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning barcha sohalarda tadbiq etilishi hamda jamiyatda raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi sharoitida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida dixotomik qarashlar vujudga kelmoqda. Bir tomondan, jahon siyosati sub’ektlari tomonidan umumiy qadriyat tamoyillarini qabul qilish jarayoni kuchayib borayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ushbu sub’ektlar o‘rtasida madaniy o‘ziga xos qadriyatlarni himoya qilish va mamlakat brendini shakllantirish, mavqeini xalqaro maydonda mustahkamlash uchun kurash olib borilmoqda. Ayniqsa bu qarama-qarshilik kommunikativ vositalar orqali (internet, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar) amalga oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakat brendini shakllantirish, mavqeini xalqaro maydonda mustahkamlash “yumshoq kuch” vositasi hisoblanib, mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligi belgilab beradi. Ushbu tushuncha ahamiyati jihatidan muhim omil bo‘lib, mamlakat o‘zining noyob, taniqli, ijobiy brendini yaratish orqali nafaqat ilmiy-texnika taraqqiyoti, sayyohlar va investitsiyalar, balki davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy aloqalarini yaxshilash, shu orqali jahon miqyosida o‘z manfaatlarini ilgari surishga xizmat qiladi. Bu masala ayniqsa rivojlangan davlatlar uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb masaladir, chunki zamonaviy raqamlashuv jarayonlar sharoitida jahon xamjamiyatida o‘z mavqeini mustahkamlash hamda milliy brendni shakllantirish, ilgari surish orqali “salbiy” stereotiplardan qochgan holda mamlakat haqida ijobiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot sohasi sifatida shakllanib borayotgan milliy brending konsepsiyasi parallel ravishda ikki yo‘nalishda – iqtisod fanlari (marketing) va siyosiy fanlar (jamoat diplomatiyasi)da shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Ularning tub farqi shundaki, iqtisod

fanlarida milliy brending tegishli marketing vositalari orqali davlatning ma’lum o‘ziga xosligini yaratish va targ‘ib qilish strategiyasi sifatida qaralsa, xalq diplomatiyasida maqsadli auditoriyaning manipulyatsiyasi va ongini boshqarishga to‘g‘ri keladi [71]. Siyosiy nuqtai nazardan mamlakat mavqei “yumshoq kuch” instrumenti hisoblanib, mamlakatning xalqaro maydondagi maqomini anglatadi. Xususan, ushbu sohada tadqiqot olib brogan olim S.Anholt mamlakat mavqeini “bir yoqlama xarakterga ega bo‘lgan va birinchi navbatda davlatning iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish maqsadida mamlakat iste’molchilarning keng doirasini qamrab olishga intiladigan o‘ziga xoslik asosida mamlakat imidjini shakllantirish” deb ta’riflaydi. milliy brend-mamlakatlar “davlat faoliyatining oltita yo‘nalishi bo‘yicha: eksport, davlat boshqaruvi, turizm, sarmoya va immigratsiya, madaniyat va meros, aholi kabi odamlarning mamlakat haqidagi tasavvurlari yig‘indisi” ekanligini ta’kidlagan[72],

Turli yondashuv va konsepsiyalardan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatning milliy brendi uning xalqaro maqomi, ta’siri, siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlari, shuningdek, ichki va tashqi barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi kuchli omildir. O‘z navbatida, milliy brending ma’lum bir hududda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun barcha maqsadli auditoriya uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlar tizimini shakllantirish va targ‘ib qilish orqali davlatning ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga yordam beradi[73].

J.Nye tomonidan ilgari surilgan "Yumshoq kuch" – millatning o‘ziga jalb qilish va ishontirish qobiliyatiga ishora qiladi. "Yumshoq kuch"ning tarkibiy qismi bo‘lgan “davlat mavqei” uning jozibadorligi uchun javobgardir [74]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va raqamli vositalari sabab ushbu nazariyadagi kuch tabiati va “yumshoq kuch”ni yaratish shartlarini tubdan o‘zgartirdi, endilikda imidj va belgilardan iborat virtual makon ushbu o‘zgarishlar markaziga aylanib bormoqda. Bu esa o‘z novbatida mamlakat milliy mavqeini shakllantirish va xalqaro munosabatlarda maqomini mustahkamlash doirasida xalq diplomatiyasiga to‘ldiruvchi instrument sifatida raqamli diplomatiya vositalari keng joriy etilayotganini anglatadi. Yuqorida ta’kidlangan tendensiyalarni anglab yetgan holda, mazkur paragrifda O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikasining xalqaro munosbatlarda mamlakat mavqeini mustahkamlashda raqamli diplomatiya vositalarining qo‘llanilishini hamda global axborot makonda mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli isloholatning qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Globallashuv jarayonlarining zamonaviy voqeligida malakatlarning xalqaro maydondagi mavqeini raqamli vositalar orqali mustahkamlash eng muhim faktorlardan biriga aylanib bormoqda. Mamlakat mavqeini mustahkamlash eng muhim omillardan biri

[71] Nargiza Baxtiyorovna. НАЦИОНАЛЬНЫЙ БРЕНДИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ ИМИДЖА «НОВОГО УЗБЕКИСТАНА» Iqtisodiyot va ta’lim 25(1), 2024 . betlar -314-315

[72] Anholt, S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. – New York: Palgrave Macmillan, 2006. – p. 23

[73] O‘z navbatida, milliy brending ma’lum bir hududda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun barcha maqsadli auditoriya uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlar tizimini shakllantirish va targ‘ib qilish orqali davlatning ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga yordam beradi.

[74] JOSEPH S. NYE, JR. SOFT POWER The Means to Success in World Politics. Published in the United States by Public AffairsTM, a member of the Perseus Books Group 2004. P. 5-6
https://www.academia.edu/28699788/Soft_Power_the_Means_to_Success_in_World_Politics_Joseph_S_Nye_Jr

davlat siyosatining milliy axborot yaratish va rivojlantirish hamda uni tashqi axborot almashinuviga imkon beradigan vositalarning qo‘llanishiga imkon yaratuvchi sharoitni yaratish muhimdir[75].

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasi mamlakat brendini targ‘ib etish, mavqeini mustahkamlash borasida samarali strategiyalarni qo‘llab kelayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu borada malakatda qabul qilingan huquqiy isloxotlar va ularning muvaffaqiyatli ijro etilishi ushbu sohada sezilarli o‘zgarishlarga turtki bo‘lagan. Ayniqsa, xalqaro munosabatlar amaliyotida roli tobora ortib borayotgan "raqamli diplomatiya"dan foydalanish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishning samarali vositaga aylanib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 2017-yilda qabul qilingan "2017-2021-yillarga mo‘jallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi"dir. Ushbu strategiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan "xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish"da belgilangan vazifalarda mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi imijini yuksaltirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar to‘g‘risidagi xolis ma’lumotlarni jahon hamjamiyatiga yetkazishga alohida e’tibor qaratilgan[76].

Ushbu strategiya doirasida O‘zbekiston tashqi siyosati sezilarli darajada faollashdi, yangicha yondashuvlar asosida aniq belgilangan vazifalarni xal etish prinsiplari qo‘llanildi. Respublikaning xalqaro mavqei, imiji va xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori sezilarli darajada mustahkamlandi. Ahamiyatga molik qadamlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "O‘zbekiston blokdan tashqari maqomini saqlab qolgan holda, barcha sheriklar bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo‘lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdoligi haqidagi bayonoti xalqaro maydonda diqqatga sazovor yutuqlardan biriga aylandi [77]. Bu esa o‘z novbatida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan isloxotlarlar to‘g‘risida jahon hamjamiyati oldida yangicha ijobiy tasavvurning shakllanishiga turtki bo‘ldi.

Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da [78] hamda Prezidentimizning 2023 yil 11 sentyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan islohotlarda mamlakatning xalqaro imijini yuksaltirish masalalariga doir omillarga urg‘u qaratilgan[79]. Jumladan, mazkur strategiyalarda ko‘zda tutilgan “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish”, “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish”, ma’naviy taraqqiyotni ya’minlash”

[75] Мохира Саидазимхужаева. УКРЕПЛЕНИЕ СТРАНОВОГО ИМИДЖА В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ПОВЕСТКЕ ДНЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
[76] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/3107042
[77] Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, г.Нью-Йорк, 19 сентября 2017 г. // http://president.uz/ru/lists/view/1063.
[78] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. URL: https://lex.uz/uz/pdfs/5841077
[79] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O‘zbekiston - 2030" strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413

kabi pirovard vazifalarning amalga oshirilishida raqamli diplomatiyani qo‘llash ijobiy rol o‘ynaydi[80].

Mamlakat tarixidagi ushbu transformatsion isloxotlar mamlakatni mintaqaviy mavqeini mustahkamlash bilan bir qatorda global mavqeini ijobiy shakllanishiga xizmat qilmoqda. So‘ngi yillarda mamlakat mavqei yopiq, proteksionizm oqibatlari yaqqol bo‘lgan mamlakatdan pragmatik ko‘p tomonlama hamkorlikka urg‘u beradigan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan mamlakatga aylandi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonni periferiyadagi ishtirokchidan Markaziy Osiyo integratsiyasi va global diplomatiyaning faol ishtirokchisiga aylantirdi hamda mamlakat kelajagiga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamladi[81].

O‘zbekiston Respublikasining mamlakat mavqeini mustahkamlashda raqamli diplomatiya rolini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin. Birinchi yo‘nalish mamlakat tashabbuslarining xalqaro maydonda e’tirof etilishi. Bu borada O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan bir qator ommaviy axborot vositalari ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlarini keng qo‘llash bo‘yicha ishlar olib bormoqda[82]. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (uza.uz) Facebook, Twitter va RSS auditoriyasi uchun ma’lumot taqdim etadi. Agentlik mobil telefonlar uchun mo‘ljallangan "mobil versiya"dan samarali foydalanmoqda. Shuningdek, hozirda O‘zbekiston Milliy axborot agentligi Uza.uz veb-saytida ettita chet tilida (rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan, arab va xitoy tillarida) ma’lumotlar joylashini tan olish joizdir. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi "Jahon" axborot agentligi (jahonnews.uz - rus, ingliz va o‘zbek tillarida) yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek, Google+ platformasida ham faoliyat yuritadi [83] .UzReport axborot agentligining yangiliklari (uzreport.com: o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Facebook va Twitter orqali tanishish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek, ingliz va rus tillarida nashr etiladigan "O‘zbekiston Today" gazetasi Facebook, Twitter, Google+, VKontakte va Odnoklassniki kabi bir qator ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘langan.

Ikinchi muhim jixat raqamli diplomatiya vositasi orqali mamlakat turizm salohiyatini oshirish. Bu borada Respublikamizda turizmni yanada rivojlantirish doirasida, 2018-yil 3-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5326-sonli Farmoni qabul qilinishi quyidagi sohada tubdan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Natijada, Isroil, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur, Turkiya va Yaponiya fuqarolari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasiga muntazam reyslarni amalga oshiradigan xorijiy

[80] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. URL: https://lex.uz/uz/pdfs/5841077

[81] E. Tulyakovo‘zbekistonning yangi tashqi siyosati: barqarorlik va taraqqiyot yo‘lidagi pragmatik diplomatiya. 03.09.2025. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonning-yangi-tashqi-siyosati-barqarorlik-va-taraqqiyot-yolidagi-pragmatik-diplomatiya_756081

[82] Kosimova, N. Technological foundations of Internet journalism / N. Kosimova . - Tashkent , 2012. -122. Qudradho'jaev Sh. As a journalist from the Internet use / Sh. Kudrakho'jaev. - Tashkent , 2010. -44. Rashidova, D. Internet journalism / D. Rashidova, N. Muratova. - Tashkent , 2007. -138.

[83] Sh. Arapov. DIGITAL DIPLOMACY IN STRENGTHENING THE NATIONAL IMAGE (CASE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). Xalqaro munosabatlar, 2023, N 1-2 (93,94). P. 10-12

aviakompaniyalarning ekipaj a’zolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kunidan boshlab 30 kun muddatga vizasiz rejim joriy etildi. Shu bilan bir qatorda institutsional islohotlar amalga oshirildi, jumladan Davlat turizm qo‘mitasi huzuridagi "Milliy turizm mahsulotini targ‘ib qilish markazi" "Milliy PR markazi" ga aylantirildi va respublika turizm salohiyatini targ‘ib qilish vazifasi yuklatildi. "Dunyo Bo‘ylab" telekanali ichki turizm, madaniy meros va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari bo‘yicha media hamkor etib tayinlandi. Ushbu chora-tadbirlar raqamli diplomatiya vositasi orqali ichki va ziyorat turizmini jadal rivojlantirishga, shuningdek, mamlakatning boy turizm salohiyatidan keng miqyosda foydalanishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda, Qozog‘iston Respublikasi ham o‘zining xalqaro maydondagi imijini rivojlantirish va mustahkamlashga katta e’tibor berayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakatning “2020-2030 yillarga mo‘ljallangan tashqi siyosat konsepsiyasi”da “gumanitar diplomatiya”ni amalga oshirish, jahon hamjamiyatida mamlakatning ijobiy imijini ommalashtirish, Qozog‘istonning jahon iqtisodiy aloqalari tizimidagi mavqeini yanada mustahkamlash, kabi maqsad va vazifalarni belgilab berilgan. Tashqi siyosat konsepsiyasida belgilangan ushbu maqsad va vazifalar mamlakatning mavqeini mustahkamlashga qaratilgan chora tadbirlar, davlat miqyosidagi muhim omil ekanligini anglatadi[84].

Shu o‘rinda, mamlakat milliy axborotini xorijiy auditoriyaga yetkazib beradigan va uni muvofiqlashtiruvchi tashkilot bu davlat Tashqi ishlar vazirligi hamda mamlakatning diplomatik korpusi hisoblanadi. Diplomatiya mamlakatning ijobiy mavqeini shakllantiruvchi eng asosiy vositalardandir. Diplomatik jarayonlarni yuritish tabiatida o‘zgarishlar vujudga kelganligi, davlatlararo munosabatlarni amalga oshirishning klassik metodlardan qochgan holda axborot-texnologiyalariga asoslangan metodlarni qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan Qozog‘iston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi ko‘proq axborot-kommunikatsiya ta’sirining yangi shakllari, usullari va texnologiyalaridan foydalanishga harakat qilmoqda. Mazkur holat diplomatik xizmatga Qozog‘istonning xorijdagi ijobiy imidjini namoyon etish uchun yangi imkoniyatlar beradi. Bu mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholining turmush tarsi, mentaliteti, mamlakatning siyosiy kayfiyatini bilish va hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi[85].

Umuman olganda, har ikki davlat tajribasi shuni isbotlaydiki, raqamli diplomatiya vositalari endilikda shunchaki “yordamchi” emas, balki xalqaro maydonda o‘z o‘rnini belgilovchi strategik omilga aylangan. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘zlarining milliy brend siyosatida qo‘llayotgan ushbu ilg‘or tajribalar ularning Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchilik mavqeyini mustahkamlash bilan birga, jahon siyosiy-iqtisodiy tizimidagi raqobatbardoshligini ham oshirmoqda. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi innovatsion yondashuvlarni davom ettirish va kontent strategiyalarini takomillashtirish ikki davlatning ham tashqi siyosiy ta’sir doirasini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[84] Sh. Arapov. DIGITAL DIPLOMACY IN STRENGTHENING THE NATIONAL IMAGE (CASE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). Xalqaro munosabatlar, 2023, N 1-2 (93,94). P. 10-12

[85] Gulsum Kenzhalina. The Role of Diplomacy in promoting Kazakhstan’s country image in the international arena. Procedia - Social and Behavioral Sciences 140 (2014) p 650 – 653